



## FUQAROLIK HUQUQIDA SHARTNOMALAR MAVZUSINI O'QITISHNING NAZARIY VA AMALIY JIHLARI

<sup>1</sup>**Ormonov G'olibjon Solijonovich**

Farg'ona viloyati yuridik texnikumi o'quv-metodik b'lim boshlig'i  
3-darajali yurist, @Galibjonsolijonovich  
Tel+998911172050,

<sup>2</sup>**Xashimov Ravshan Raimjonovich**

Farg'ona viloyati yuridik texnikumi maxsus fan o'qituvchisi  
3-darajali yurist, @Xashimov\_Ravshanjon.  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7413038>

### ARTICLE INFO

Received: 24<sup>th</sup> November 2022

Accepted: 29<sup>th</sup> November 2022

Online: 30<sup>th</sup> November 2022

### KEY WORDS

*Huquq, demokratiya, Inson huquqlari, qonun, shartnoma turlari, memorandum va h.k.*

### ABSTRACT

*Shartnoma nazariyasi - bu odamlar va tashkilotlar qanday qilib huquqiy shartnomalar tuzish va ishlab chiqishni o'rganadi. Unda manfaatlar qarama-qarshi bo'lgan tomonlar qanday qilib rasmiy va norasmiy shartnomalar, hatto ijara shartnomasini tuzishni tahlil qiladi.*

Shartnoma nazariyasi moliyaviy va iqtisodiy xulq-atvor tamoyillariga asoslanadi, chunki turli tomonlar muayyan harakatlarni bajarish yoki qilmaslik uchun turli xil rag'batlarga ega. Bundan tashqari, forvard shartnomalari va boshqa huquqiy shartnomalar va ularning qoidalarini tushunish uchun foydalidir. Shuningdek, u niyat xatlari va anglashuv memorandumlarini tushunishni o'z ichiga oladi. Ideal dunyoda shartnomalar keyinchalik yuzaga keladigan nizolar yoki tushunmovchiliklar xavfini bartaraf etadigan mas'uliyat va talablarni aniq va aniq tushinishi kerak. Biroq, bu har doim ham sodir bo'lmaydi. Shartnoma nazariyasi turli tomonlar o'rtasidagi nazarda tutilgan ishonchni o'z ichiga oladi va iqtisodiy bitimning bir tomoni boshqa tomonga qaraganda ko'proq moddiy bilimga ega bo'lganda yuzaga keladigan assimetrik ma'lumotlar mavjud bo'lganda shartnomalarning shakllanishini tekshiradi. Shartnoma nazariyasining eng ko'zga ko'ringan qo'llanilishidan biri bu

xodimlarning nafaqalarini qanday qilib optimal tarzda loyihalashdir. Shartnoma nazariyasi qaror qabul qiluvchining muayyan tuzilmalar ostida xatti-harakatlarini o'rganadi. Ushbu tuzilmalar ostida shartnoma nazariyasi shaxsning qarorlarini optimallashtiradigan algoritmi kiritishga qaratilgan.

Shartnoma o'ziga xos huquqiy munosabat va yuridik fakt sifatida majburiyatlarning vujudga kelishi uchun asoslardan biri hisoblanadi. Zero, majburiyatlarning eng an'anaviy va "original" ifodasi amaliyotda shartnoma ko'rinishida namoyon bo'ladi. Ma'lumki, majburiyatlar turli-tuman yuridik faktlar natijasida vujudga keladi. Lekin, majburiyatlarning vujudga keltiruvchi eng muhim va keng tarqalgan vosita bu shartnomalar hisoblanadi. Shartnomalardan boshqa yuridik faktlar majburiyatlarning vujudga kelishida o'ziga xos o'ringa ega bo'lsa, ular shartnomalar kabi asosiy o'rinni egallaydi. Masalan, bir tomonlama bitimlarda bir shaxsning erki



irodasi asosida majburiyat vujudga keladi va bunday majburiyatlar fuqarolik huquqida va amaliyotda u qadar ko'p uchramaydi. Shu bilan birga bir tomonlama bitimlar majburiyat tushunchasining an'anaviy qolipiga mos kelmasligini ham ta'kidlab o'tish lozim. Ya'ni, majburiyat tushunchasidagi qarzdor va kreditor o'rtasidagi huquqdorlik va majburlik formulasi bir tomonlama bitimlarda aynan ifodalanmaydi. Majburiyatni vujudga keltiruvchi boshqa asoslardan farq qilib, faqat shartnomalardagina majburiyat formulasi to'liq va aynan o'z ifodasini topadi. Majburiyat formulasiga muvofiq, kreditor - qarzdor va talab qilish huquqi – majburlik (harakatni amalga oshirish yoki harakatdan tiyilish)ning o'zaro nisbati har bir shartnomaning o'zagini tashkil etadi. Chunki shartnomaga muvofiq bir taraf ikkinchi tarafga tovarni mulk qilib berish, ishni bajarish, xizmat ko'rsatish majburiyatini olsa, ikkinchi taraf haqni to'lash va ijroni qabul qilish majburiyatini oladi.

Ta'kidlash joizki, shartnomadan kelib chiqadigan har qanday nizoni ko'rib chiqish chog'ida sud u yoki bu darajada shartnomani sharhlashni amalga oshiradi. Shartnomani sharhlashning mohiyatini anglashda huquqni sharhlash bilan bog'liq qoidalardan foydalanish ham mumkin. Ma'lumki, qonun va boshqa normativ-huquqiy aktlarni, har bir normani hayotda to'g'ri tatbiq qilish, qo'llash, ya'ni ular bilan jamiyatda, kishilar o'rtasidagi turli ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish muhimdir. Huquqiy normalar hayotda to'g'ri qo'llanib, ular orqali davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar o'rtasida turli ijtimoiy munosabatlar tartibga solinadi. Shuning

uchun huquqiy normani hayotga tatbiq etishda shu huquqiy norma bilan hal qilinadigan ishni har taraflama o'rganish va ishni to'g'ri kvalifikatsiya qilish kerak. So'ngra, fuqarolar va yuridik shaxslar o'rtasidagi tegishli ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan huquqiy normalarni sharhlash lozim. Huquqiy normalarning mazmunini to'g'ri anglab olish va ularni sharhlash, sodir bo'lgan ijtimoiy munosabatlarga ularni tatbiq etishdan oldin, uning ma'nosi va mazmunini to'g'ri anglash muhimdir. Huquqiy normalarni sharhlash masalasi quyidagi uchta muhim masalani o'z ichiga oladi:

1) tatbiq etiladigan huquqiy normalarni sharhlovchi sub'ektlarni aniqlash (bular - davlat organlari - davlat hokimiyatining oliy va mahalliy vakillik organlari, ijro etuvchi organlar - Prezident, Vazirlar Mahkamasi, viloyatlar, tumanlar, shaharlar hokimlari, turli vazirliklar va davlat qo'mitalari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar - sud, prokuratura, adliya, ichki ishlar idoralari va boshqalar, jamoat birlashmalari, mansabdor shaxslar va fuqarolar);

2) tatbiq qilinadigan huquqiy normalarning mazmunini aniqlash uchun mantiqiy, grammatik, tarixiy va sistematik usullar qo'llaniladi;

3) tatbiq etilayotgan normalarning hajmi bo'yicha va yuridik kuchiga qarab sharhlash.

Qoidaga ko'ra, shartnomani sharhlashda eng asosiy masalalardan biri uning shartlarini sharhlash hisoblanadi. Bu holat shartnomaning tuzilganligi va uning haqiqiylikini aniqlashda ko'riladi. Qolaversa, shartnoma sharti buzilganda fuqarolik-huquqiy javobgarlikni tatbiq etishda ham shartnomaning shartlarini sharhlashga murojaat qilinishi mumkin.



Biroq shartnomaning shartlarini sharhlash muammosi boshqa turdagi nizolarda ham vujudga kelishi mumkin. Masalan, vindikatsion da'voni qo'llashda ashyoni oldi-sotdi qilish shartnomasining nizoli shartining mohiyatini aniqlash, korporativ nizoda esa sud tomonidan aktsiyadorlik bitimining mazmuniga e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Shartnomani sharhlash muayyan huquqiy nizolarni yechishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Ijtimoiy munosabatlarning murakkablashib borishi hamda shartnomalar tuzish borasidagi dispoitivlik taraflarga turli xildagi shartnomalar tuzish huquqini beradiki, bu borada huquqni qo'llovchi oldida bir qator muammolar yuzaga kelishi mumkin. Bu eng avvalo, tuzilgan shartnomani aynan qaysi turdagi huquqiy munosabat ekanligini aniqlash va unga nisbatan qaysi qonun normalarini qo'llash muammosidir. Masalan, hozirda shartnoma tuzishda taraflar bir vaqtning o'zida ko'plab shartnoma elementlarini qamrab olishlari mumkinki, bu o'z navbatida ularga nisbatan nafaqat fuqarolik qonunchiligini balki, ma'muriy, moliyaviy, mehnat va soliq qonunchiligini qo'llashni qiyinlashtiradi.

Zero, ko'plab shartnomalar muayyan turdagi faoliyat turini ham tartibga soladi. Bu esa o'z navbatida tegishli faoliyati turi uchun soliq to'lovlari stavkasini aniqlash muammosi bilan bog'liq. Shu bois taraflar faoliyat turi uchun belgilangan soliq stavkalarini kamroq to'lash maqsadida shartnoma nomi va predmetini kam soliq to'lanadigan faoliyat turiga oid shartnoma shaklida rasmiylashtirishlari mumkinki, bunday holat huquqni qo'llovchi to'g'ri yondashuvdan chalg'ishi mumkin. Binobarin, bu vaziyatda asosiy va hal qiluvchi o'rinni fuqarolik qonunchiligi egallaydi. Chunki, aynan fuqarolik qonunchiligi shartnomaga huquqiy bahoni belgilashda asosiy manba hisoblanadi. Amaliyotda huquqni qo'llash bilan bog'liq bunday vaziyatlar uchrab turar ekan talabalar shartnomalarni sharhlash ko'nikmalarini ham shakllantirishlari zarur. Masalan, keyingi paytda provayderlik xizmatlari, ringtonglarni telefonlarga musiqa sifatida joylashtirish faoliyatini amalga oshiruvchilar faoliyatini vositachilik shartnomasini predmeti sifatida talqin etish hollari uchraydi.

## References:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2018. – 76 b.
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, № 11- 12, 2010, № 37, 313-modda , 315-modda. O'zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida”gi Qonuni // 2012 yil 2 may, O'RQ-328-son
3. O'zbekiston Respublikasining “Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida”gi Qonuni //O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. – 1998. №9. 170-m.
4. O'zbekiston Respublikasining “Bankrotlik to'g'risida”gi Qonuni // Yangi tahriri O'zR 24.04.2003 y. 474-II-son Qonuni bilan tasdiqlangan
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq xo'jaligida hisob-kitoblar o'z vaqtida o'tkazilishi uchun korxonalar va tashkilotlar rahbarlarining mas'uliyatini oshirish borasidagi



chora-tadbirlar to'g'risida"gi 1154-sonli 1995 yil 12 may Farmoni//O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari. – Toshkent: 2000. - №4. - B. 17-19.

6. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

7. <https://uz.wikipedia.org/>